

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel/Faks: 67-226-06-41, E-mail:
sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i:

Sana:

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Zarbdor" MFY hududida "SAYHUN INVEST" MCHJ tomonidan "Ko'p qavatli turar-joy binolari" qurish	
Buyurtmachi:	SAYHUN INVEST MCHJ
Bosh loyihachi:	"NANOPROEKT VA TEXNOLOGIYA" mas'uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov savdolari orqali aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	099358

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashining 2025-yil 16-maydagi YII-12-88-9-124-K/25-sonli qarori;
- 1.2. Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasining 2025-yil 28-avgustdagi 1724-1724220-237301-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.
- 1.3. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o'rtasidagi 2025-yil 12-avgustdagi Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun LSX-19-sonli shartnoma.
- 1.4. "O'ZGASHKLITI" mas'uliyati cheklangan jamiyati Sirdaryo viloyati filialining 2025-yildagi muhandislik-geologiya sharoitlari xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

- 2.1. Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Zarbdor" MFY hududida "SAYHUN INVEST" MCHJ tomonidan "Ko'p qavatli turar-joy binolari" qurish obyektining loyiha-smeta va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

- 3.1. Qurilish objekti joylashgan maydon tavsifi.

Loyihadagi mukammal ta'mirlash objekti Sirdaryo viloyati Boyovut tumanii xokimligi xisobidagi bo'sh turgan qavatli yotokxona binosini 52 xonadonli uy-joyga moslashtirish (rekonstruksiya) obyektning arxitektura-rejalashtirish yechimi loyiha topshirig'iga muvofiq ishlab chiqilgan.

3.2. Qurilish maydonining xususiyatlari.

Me'yoriy qor tushish bosimi - $S_o=0,50$ KPa (50 kgs/m²) (QMQ 2.01.07-96).

Me'yoriy shamol tezligi bosimi - $W_o=0,38<0,48$ KPa ($38<48$ kgs/m²) (QMQ 2.01.07-96).

Hududning zilzilaviyligi - 7 ball.

Binoning zilzilaviylik bardoshlilikligi - 8 ball.

Tuproqning muzlash sathi - ($-0.30<-0.70$ metr).

Tuproqning zilzilaviylik tarkibiy toifasi - II. (ikkinchi).

Tuproqning cho'kuvchanlik toifasi - I (birinchi).

Tashqi havo harorati hisobi - $T_n=-14^{\circ}\text{C}$.

O'rtacha yillik harorat - ($+32^{\circ}\text{C}$).

Eng baland harorat - ($+32^{\circ}\text{C}<-20^{\circ}\text{C}$).

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi - II. (ikkinchi).

Binoning chidamlilik darajasi - II. (ikkinchi).

Binoning javobgarlik sinfi - II. (ikkinchi).

Binoning konstruktiv yong'in xavfi sinfi - C0.

Funksional yong'in xavfliligi bo'yicha sinfi - F1.3.

3.2. Loyihalanayotgan obyekt hududi. (GP) Shimol tomondan - Ichki yo'l bilan chegaralangan. Janub tomondan - Zovur hududi bilan chegaralangan. Sharq tomondan - Mavjud bino hududlari bilan chegaralangan. G'arb tomondan - Mavjud bino hududlari bilan chegaralangan.

3.3. Hududning texnik iqtisodiy ko'rsatgichlari. (GP)

1. Umumiy maydoni - 0,528 Ga.

2. Qurilish maydoni - 0,189 Ga.

3. Yo'laklar va qoplamalar - 0,210 Ga.

4. Ko'kalamzorlashtirish - 0,129 Ga.

3.4. Obyektning qurilish qaydnomasi. (GP)

1. 9-qavatli 1-seksiyali yashash uyi. (Blok-1).

2. 9-qavatli 1-seksiyali yashash uyi. (Blok-2).

3. 9-qavatli 1-seksiyali yashash uyi. (Blok-3).

4. 9-qavatli 1-seksiyali yashash uyi. (Blok-4).

5. 9-qavatli 1-seksiyali yashash uyi. (Blok-5).

6. Besedka dam olish uchun.

7. Bolalar sport maydonchasi.

8. Avtoturargoh - 88 avtomabillar uchun.

9. Septik qurilma.

10. TP. Transformator. 10/04.

11. Chiqindi joyi.

12. Nogironligi bo'lgan shaxslarga dam olish uchun joy.

3.5. Arxitektura rejalashtirish yechimi. (Blok-1-2-3-4-5. AR).

Sirdaryo viloyati Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Zarbdor" MFY hududida qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turar-joy binosi qurish 1 va 5-bosqich (BLOK "1", Blok "2", BLOK "3", BLOK "4", BLOK "5") obyektini funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda arxitekturaviy-rejalashtirish yechimi qabul qilingan, shuningdek iqlim va mahalliy sharoitlar hisobga olingan.

Blok-1-2-3-5.

9-qavatli qavatli turar-joy Blok-1-2-3-5 binosi (A-G) o'q chiziqlari bo'yicha 15,00 metrni va (1-6) o'q chiziqlari bo'yicha 21,50 metrni o'lchamlari bilan to'rtburchak shaklda loyihalangan. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland parapet qismigacha +31,40 metrni tashkil etadi.

Binoning barcha qavatlarining balandligi poldan shiftgacha $h=2,84$ metrni tashkil etadi. Tomi qiya $i=10^\circ$ va yassi qiya $i=2^\circ$ tom qilib yopilgan. Sokol qavati balandligi $h=2,70$ metrni tashkil etadi. Sokol sathi -2,96 metrda. Mutloq sath esa, polning balandligi yuzasi +0.00 sathi Sokol qavatining umumiy maydoni 295,52 m² ni, tashkil qiladi. Barcha bir turdagi 1,2,3,4,5,6,7,8,9-qavatlarining maydoni 306,14 m² dan iborat. Umumiy 2755,26 m² ni tashkil etadi. Bir turdagi har bir qavatlarda 4-tadan honadondan mavjud.

Blok-4.

9-qavatli qavatli turar-joy.Blok-4.binosi (A-Yo) o'q chiziqlari bo'yicha 24,20 metrni va (1-5) o'q chiziqlari bo'yicha 18,40 metrni o'lchamlari bilan to'rtburchak shaklda loyihalangan. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland parapet qismigacha +31,40 metrni tashkil etadi. Binoning barcha qavatlarining balandligi poldan shiftgacha $h=2,84$ metrni tashkil etadi. Tomi qiya $i=10^\circ$ va yassi qiya $i=2^\circ$ tom qilib yopilgan. Sokol qavati balandligi $h=2,70$ metrni tashkil etadi.

Sokol sathi -2,96 metrda. Mutloq sath esa, polning balandligi yuzasi +0.00 sathi Sokol qavatining umumiy maydoni 374,48 m² ni, tashkil qiladi. Barcha bir turdagi 1,2,3,4,5,6,7,8,9-qavatlarining maydoni 368,30 m² dan iborat. Umumiy 3314,70 m² ni tashkil etadi. Bir turdagi har bir qavatlarda 4-tadan honadondan mavjud.

3.6. Texnik iqtisodiy ko'rsatgichlar. (Blok-1-2-3-5. AR. TEP)

1. Honadonlarni yashash maydoni	- 1173,30 m ² .
2. Honadonlarni umumiy yashash maydoni (balkonsiz)	- 2196,48 m ² .
3. Honadonlarni umumiy yashash maydoni (balkoni bilan)	- 2323,18 m ² .
4. Yerto'la qismini maydoni	- 329,84 m ² .
5. Qurilish maydoni	- 374,48 m ² .
6. Qurilish hajmi (+0.00 dan yuqori qismi)	- 10218,90 m ³ .
7. Qurilish hajmi (+0.00 dan pastki qismi)	- 560,71 m ³ .
8. Binoning maydoni	- 3170,76 m ² .
9. Savdo-mishiy umumiy maydoni	- 122,12 m ² .

3.7. Texnik iqtisodiy ko'rsatgichlar - (Blok-4. AR. TEP).

1. Honadonlarni yashash maydoni	- 1467,92 m ² .
2. Honadonlarni umumiy yashash maydoni (balkonsiz)	- 2673,94 m ² .
3. Honadonlarni umumiy yashash maydoni (balkoni bilan)	- 2832,34 m ² .
4. Yerto'la qismini maydoni	- 374,48 m ² .
5. Qurilish maydoni	- 412,03 m ² .
6. Qurilish hajmi (+0.00 dan yuqori qismi)	- 12798,60 m ³ .
7. Qurilish hajmi (+0.00 dan pastki qismi)	- 700,45 m ³ .
8. Binoning maydoni	- 3847,67 m ² .
9. Savdo-mishiy umumiy maydoni	- 111,56 m ² .

3.8. Tashqi pardoqlash ishlari. (Blok-1-2-3-4-5. AR).

Tashqi devorlari - Qalinligi 200mm.li Avtoklavli gazoblok zichligi $\rho=500-600\text{kg/m}^3$ devorlar bilan to'ldirilgan. (issiqlik himoya qatlami bilan o'ralgan). Ichki devorlar - Qalinligi 100-200mm.li Avtoklavli gazoblok zichligi $\rho=500-600\text{kg/m}^3$ devorlar bilan to'ldirilgan.

Tashqi issiqlik himoya qoplamasi - Xajmiy og'irligi $PPJ-\gamma=120\div140\text{kg/m}^3$ GOST 9573-2012 $\delta=50\text{mm}$.dan kam bo'lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi bezak - Dekorativ travertin bezak, mahsus suvoq ustidan och kulrang ragda. Sokol - Suvoq qilinib, keramik plitkali bezag bilan qoplanadi. $\delta=10\text{ mm}$.

Krilso - Keramik plitkali bezag bilan qoplanadi. $\delta=10\text{ mm}$.

Otmotka - Bino perimetri beton qoplamasi yotqizilgan eniga $1000\div1500\text{mm}$, beton sinfi B7.5 belgisi qalinligi 50mm . bo'lgan shag'al asos 100mm .

Kozirek - Dahliz kozireklari Alyupan paneli turidagi qoplamadan.

Otkoslar - Dekorativ bezak travertin ostidan.

Dekorativ elementlar - Penopolistirool turidagi tyaga tekis shaklda.

Tom qoplamasi - Profil yuzali metal qoplama yog'och konstruksiya ustidan yopiladi. Tom yopmasi - Temir beton plita (Blok-1-2-3-4-5) yog'och konstruksiya ustidan falgaizol to'shaladi.

Tom issiqlik qoplamasi - Mineral tolali $\gamma=100\text{kg/m}^3$ qalinligi $\delta=100\text{mm}$. Penopleks bilan $\gamma=100\text{kg/m}^3$ - $\delta=50\text{mm}$. 2 qatlam umumiy $\delta=100\text{ mm}$. qoplanadi.

Tashqi tokchalar - Po'lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm eniga 200mm .

3.9. Ichki pardozlash ishlari. (Blok-1-2-3-4-5. AR).

Devor - Yaxshi suvoq ustidan yelim tarkibli shpaklyovkada tekislanib yorqin rangidagi suv asosli bo'yoqlar bilan pardozlab bo'yaladi.

Yuvinish xonalari - Devorlar kafellari poldan $h=0.60-1,8\text{m}$ gacha bo'lgan balandlikda glazurli plitkalar bilan, yuqori qismini bo'yoqlar bilan bo'yaladi.

Pollar - Beton, kafel katta olchamdagi va laminatdan qoplanadi.

Shiftlar - Yelim tarkibli shpaklyovka bilan tekislanadi, suv asosli bo'yoq bilan yengil ranglar bilan bo'yaladi.

Eshiklar - Alyuminiy profillardan (steklopaket) tayyorlangan individual ishlab chiqariladi. Ichki eshiklar, MDFdan yasaladi.

Derazalar - Ikki qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan va alyuminda ishlab chiqariladi.

Tokchalar - PVX plastik.

Plintuslar - PVX plastik.

3.10. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yechimlar. (Blok-1-2-3-4-5. NBSH). Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun barcha qavatlarda chora tadbirlar loyihalangan. Loyihalash ishlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-266-son qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining tashkilotlarga qarashli binolarga kirish va chiqish, fuqarolarni qabul qilish joylari hamda sanitariya-gigiena shoxobchalarini (hojatxonalarini) nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari bajarilgan. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo'yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. "Nogironligi bo'lgan shaxslarga" uchun qurilmalar va jixozlarini o'rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o'rtasida aniqladi. Barcha talablar bajarilishini ta'minlash va javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani o'qib qabul qilishi bilan unga yuklanadi.

3.11. Konstruktiv yechimlari.

Ijobiy ekspertiza xulosasi. (12.12.2025y).

Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Zarbdor" MFY hududida "SAYHUN INVEST" MCHJ tomonidan "Ko'p qavatli turar-joy binolari" qurish.

Buyurtmachi: "SAYHUN INVEST" MCHJ.

Bosh loyiha tashkiloti: "NANOPROEKT VA TEXNOLOGIYA" MCHJ.

Ekspertizaga taqdim etilgan hujjatlar:

- Birlamchi hujjatlari.
- Ishchi loyiha hujjatlari.
- Smeta hujjatlari.

Qurilish maydonining tasnifi:

- qishki tashqi havo harorati - -19°C .
- normativ shamol yuklamasi - 0.38 kPa (38 kgs/m^2).
- normativ qor yuklamasi - 0.50 kPa (50 kgs/m^2)
- hudud seysmikligi - 8 ball

Loyiha konstruktiv yechimlarining qisqacha tasnifi:

Blok-1-2-3-5.

Binoning o'qlar bo'yicha umumiy o'lchamlari - $21.5 \times 15.0\text{m}$, to'g'ri to'rtburchak shaklidan iborat.

Poydevor qurish uchun dastlab, yer qazish ishlari bajariladi.

Poydevori - B20 sinfli 900 mm qalinlikdagi yaxlit quyma temirbetondan iborat. Diafragma - B25 sinfli 200 mm qalinlikdagi yaxlit quyma temirbetondan iborat. Orayopma - B25 sinfli 180 mm qalinlikdagi yaxlit quyma temirbetondan iborat.

Tashqi devorlari - gazoblok terimlaridan iborat. Devorlarni kuchaytirish gorizontalar mosetka elementlari yordamida bajariladi.

Tom qoplama - yog'och konstruksiya elementlari ustidan profnastil qoplamalari o'rnatiladi.

Zina va pandus - B15 sinfli quyma temirbeton konstruksiyalardan iborat.

Blok-4 Binoning o'qlar bo'yicha umumiy o'lchamlari - $24.2 \times 18.4\text{m}$, to'g'ri to'rtburchak shaklidan iborat.

Poydevor qurish uchun dastlab, yer qazish ishlari bajariladi.

Poydevori - B20 sinfli 900 mm qalinlikdagi yaxlit quyma temirbetondan iborat. Diafragma - B25 sinfli 200 mm qalinlikdagi yaxlit quyma temirbetondan iborat. Orayopma - B25 sinfli 180 mm qalinlikdagi yaxlit quyma temirbetondan iborat.

Tashqi devorlari - gazoblok terimlaridan iborat. Devorlarni kuchaytirish gorizontalar mosetka elementlari yordamida bajariladi.

Tom qoplama - yog'och konstruksiya elementlari ustidan profnastil qoplamalari o'rnatiladi.

Zina va pandus - B15 sinfli quyma temirbeton konstruksiyalardan iborat.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr yoritish.

NES.

Loyihaning mazkur bo'limida Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Zarbdor" MFYda joylashgan 9 qavatli (5 blok) turar joy binosini elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Ishchi loyiha quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

- "HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ Sirdaryo hududiy filiali tomonidan 24.11.2025-yilda berilgan 24220133223-sonli texnik shartlar.
- buyurtmachi tomonidan berilgan dastlabki ma'lumotlar;
- Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalashtirish topshiriqlari;

- elektr tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish bo'yicha amaldagi normativ hujjatlar;
- iste'molchilar elektr ta'minoti ishonchliligining normativ darajalarini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar.

III toifali elektr ta'minoti iste'molchisi.

Loyihada quyidagilar nazarda tutiladi:

1. APvPU 1x150/25-10 markali, uzunligi 1,550 km bo'lgan 10 kV kabel liniyasini qurish.
2. TMG-630/10/0,4kV moy transformatori bilan GKTP-630 kVA transformator podstantsiyasini o'rnatish. Texnik shartlarga ko'ra ulanish nuqtasi PS 110/10 "Yulduz" ning loyihalanayotgan K59 yacheykasi hisoblanadi.
3. Transformator podstantsiyasidan taqsimlash shchiti (TRSh) gacha AVVG markali kabel 0,9 m dan kam bo'lmagan chuqurlikda yotqiziladi, qumli yostiqchaga va ustidan g'isht bilan himoyalaniadi. Kabel boshqa muhandislik tarmoqlari va inshootlari bilan kesishganda asbestga sement quvur yotqizilsin.
4. Elektr energiyasini tijorat asosida hisobga olishning avtomatlashtirilgan axborot-o'lchov tizimi - ENHATni o'rnatish.

Transformator podstantsiyasi va tayanchlarni yerga ulash namunaviy loyihaga muvofiq bajarilishi kerak.

Yer qazish ishlarini olib borishda barcha manfaatdor tashkilotlarning vakillarini taklif qilish tavsiya etiladi. Obyekt hududini yoritish uchun zamonaviy o'rnatilgan energiya tejovchi ko'cha yoritish fonar ustunlari quyosh batareyalari to'plami va fotorelega ega bo'lgan yorug'lik diodli yoritgichlar.

Loyiha "O'zenergoinspeksiya"ning Sirdaryo filiali bilan kelishilgan:

- Elektr energetikada nazorat inspeksiya 2025-yil 28-noyabrdagi 18-2-12/2484-sonli xulosa. Elektr ta'minoti.

Ushbu loyiha QMQ, SNI va PUE talablariga muvofiq AS, VK va OB chizmalari asosida bajarilgan.

9 qavatli turar joy binosining energiya ta'minoti loyihasi. Energiya ta'minotining ishonchliligi bo'yicha obyekt II toifali iste'molchilar qatoriga kiradi. Binoning elektr qurilmasining elektr ta'minoti tashqi taqsimlash tarmoqlaridan amalga oshiriladi. Kirish-taqsimlash shchitlari sifatida VRU panellari qabul qilingan.

Qavat shchitlari sifatida QE shchitlari qabul qilingan.

Kvartira shchitlari sifatida guruhli bir fazali avtomatik uzgichlari bo'lgan SHK ishlatiladi.

Xonadon shchitlari xonadonlarning kirish yo'laklariga o'rnatilgan.

Taqsimlash shchitlarida yerga ulash shinasini o'rnatish ko'zda tutilgan. Rozetka guruhlaridagi avtomatik uzgichlar himoya qurilmalariga ega. ta faolsizlantirish.

Har bir xonadon uchun bir fazali elektr energiyasi hisoblagichlarini o'rnatish ko'zda tutilgan. QMQ 2.01.05-98 ga muvofiq loyihada 220V kuchlanishli umumiy ishchi va avariya yoritish ko'zda tutilgan.

Kvartiralarining barcha xonalarida QMQ 2.08.01-05 ga muvofiq klemma kolodkalari, oshxona va dahlizlarda klemma kolodkalari va osma patron, birlashtirilgan sanitariya tugunlarida esa yoritgichlar o'rnatilishi ko'zda tutiladi.

Yoritgichlar turini tanlash xonaning vazifasi va muhitning xususiyatiga muvofiq amalga oshiriladi. Xonaning yoritilganligi qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq qabul qilingan.

Zinapoya kataklariga harakat datchigiga ega chiroqlar o'rnatilgan. Loyihada har bir xonadonga tugmachali elektr qo'ng'iroqlar o'rnatish ko'zda tutilgan. SVG kabellarini montaj

qilish suvoq qatlami ostida, devorlar bo'ylab gofrlangan quvurda yoki egatlarda yashirincha amalga oshiriladi.

Elektr uskunalarning normal tok o'tkazmaydigan barcha metall qismlari VRUdagi nol simi va RE shinasiga ulash orqali yerga ulanishi va nolga keltirilishi kerak. Barcha elektr montaj ishlari PUE va QMQga muvofiq bajarilsin.

Elektr energiyasini tejash uchun binoni muqobil energiya bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda. Muqobil energiya binoning tom qismida (har bir blok uchun) 15 kVt quvvatga ega quyosh panellarini o'rnatish orqali ta'minlanadi.

4.2. Isitish va shamollatish tizimi.

1 BLOK.

1. Umumiy ma'lumotlar.
2. Umumiy ma'lumotlar.
3. Yertula kavatning isitish tizimlari rejasi.
4. 1- kavatning isitish tizimlari rejasi.
5. 2-5- kavatning isitish tizimlari rejasi.
6. 6-8- kavatning isitish tizimlari rejasi.
7. 9- kavatning isitish tizimlari rejasi.
8. 1- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
9. 2- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
10. 3- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
11. 4- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
12. 5- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
13. 6- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
14. 7- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
15. 8- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
16. 9- kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
17. Chordok kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
18. Tom yopish kavatning shamollatish tizimlari rejasi.
19. Isitish tizimining chizmasi.
20. 1-sonli boshkaruv tugmasi.

Uskunalar, mahsulotlar va materiallar spesifikatsiyasi.

Bundan tashqari, shu jumladan quyidagi xujjatlar taqdim yetilgan: Hisoblangan ma'lumotlar.

Normativ hujjatlar.

Asosiy isitish va shamollatish yechimlari;

Isitish va shamollatish uchun asosiy ko'rsatmalar.

Ko'p qavatli turar-joy binosini isitish issik suv bilan isitish moslamalari asosida ishlab chiqilgan.

Bino xavo yetkazib berish va chiqarish shamollatish tizimlari bilan ta'minlangan.

ISITISH BO'LIMI UCHUN LOYIXA YECHIMLARI.

Issiqlik ta'minoti manbai etib -loyiha bo'yicha bir konturli suv isitish kozonlari nazarda tutilgan.

Bir konturli suv isitish kozonlari isitish ta'minoti tizimlari uchun ishlatiladi.

Isitish tizimi uchun issik suv parametrlari 95-70 °C bo'lgan suvdur. Tizimning quvurlari shisha tolasi bilan mustahkamlangan polipropilen quvurlarlardan loyixalashtirilgan.

Alyumin radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi.

Pollar va devorlar kesishmasida yotqizilgan quvurlar yonuvchan bo'lmagan materiallardan yasalgan yenglarda o'tkaziladi.

Isitish tizimini tartibga solish uchun issiqlik uzatish kuvurlari va ularning ulanishlarida isitish moslamalarini o'chirish imkoniyati bor klapanlar yetkazib berish va qaytarish quvurlariga o'rnatilgan.

Isitish tizimlaridan havoni olib tashlash uchun isitish radiator moslamalarining yuqori nuqtasiga o'rnatilgan yarim avtomatik havo chikargichlar orqali ta'minlanadi.

Isitish tizimlarining ko'targichlaridan suv tizimning pastki nuqtalarida joylashgan drenaj klapanlari yordamida chiqariladi.

Barcha magistral quvurlar va ko'targichlar izolyatsiya qilingan.

ShAMOLLATISH BO'LIMI UChUN LOYIXA YeChIMLARI.

Binoni shamollatish mexanik va tabiiy uslub bo'yicha muljallangan.

Xonalarda havo almashinuvi hisoblash yo'li bilan aniqlangan va shuningdek, havo ta'minotining sanitariya normasi bo'yicha xisoblangan.

Shamollatish tizimlari o'rnatilgan.

Tabiiy va mexanik uslub shamollatish binoda ta'minlanadi, xavo oqimi uyushmagan va derazalarning ochilish orqali amalga oshiriladi.

Havoni chikarib tashlash uchun qurilish loyixalarida vertikal shamollatish kanallari va ularga urnatilgan havo panjaralari orkali mo'ljallangan.

Ichkari xonalar havosining chiqishi tomning tepasiga chikarish bilan mo'ljallangan.

Ichki isitish va shamollatish tizimlarini o'rnatish KMK talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlangan.

4.3. Suv ta'minoti va oqava suv tizimi.

Sovuq va issiq suv ta'minoti - Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini loyihalash SHNQ 2.04.01-22 talablariga muvofiq amalga oshirilgan. Bino yerto'la qismida bosim uchun 2 dona (1-ishchi,1-zahira) nasoslar jamlanmasi ($Q=18.41 \text{ m}^3/\text{soat}$; $H_{\max}=108.4\text{m}$; $N=3.30 \text{ kVt}$) hamda suv zahirasi maqsadida sig'imi 10m^3 bo'lgan plastik bakdan 1 dona loyixalashtirilgan.

Sovuq va issiq suv tizimlari $D_n=20\dots 75\text{mm}$ polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Loyiha doirasida bino tomiga quyosh suv isitish qurilmalari (HWH-35-300) o'rnatiladi. Ular suv tarmog'i orqali sovuq suv bilan ta'minlanadi, kollektorlardan chiqayotgan issiq suv har bir xonadondagi elektr suv isitish moslamasi (50l) orqali iste'molchiga yetkaziladi. Issiq va sovuq suv uchun xar bir xonadonga $d_n=20\text{mm}$ suv o'lchash uskunlari va fil'tr o'rnatiladi.

Ichki oqova suv tarmoqlari - Oqova suv quvurlarini yotqizish $d_n=50\text{mm}$, $d_n=110\text{mm}$ (GOST 32412-2013) bo'lgan PVX kanalizatsiya quvurlardan yashirin tarzda amalga oshiriladi.

Sanitariya-texnik jihozlari - Yuvinish xonalari va hojatxonalarda qo'l yuvish dastgohlari (umival'nik), unitazlar, vanna, osh xonada idish yuvish qozonlari (moyka) joylashtirilgan.

Tashqi suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish - Tashqi suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish ishchi loyihalari 2-bosqichda bajarilishi ko'zda tutilgan ("SAYHUN INVEST" MCHJning 2025-yil 12-dekabrda 12-sonli xati).

4.4. Yong'in xavfsizligi.

Loyihaning umumiy ko'rsatmalar qismida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra loyihalanayotgan binoning funksional yong'in xavfi bo'yicha F 1.3 deb olingan.

Binoning yong'iniga qarshiligi - II toifa. Bino konstruksiyalarining yong'in xavfzligi bo'yicha funksional sinfi - S0. Loyihada binoning o'tga chidamlilik darajasi, o'tga chidamlilik chegaralari va inshootning yong'in guruhlariga javob berishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo'laklari tizimi belgilangan va yoritish chiroqlari bilan

ta'minlangan. Yog'ochdan yasalgan tom yopish konstruksiyalari yong'inga qarshi vositalar bilan ishlov berilgan, tok o'tkazmaydigan barcha elektr jihozlarining tuproqlanishi va nolga teng bo'lishi belgilangan. Binoning tom qismida aylanasiga temir panjara bilan o'ralgan, binoning xonalariga yong'in signalizatsiyaning xabarlagichlari bilan jihozlangan.

Yong'in signalizatsiya tizimini qabul qiluvchi qurilma sifatida Rubej-2OP prot. R3 rusumli manzilli qurilmasi qabul qilingan. IP 212-64-R3 W1.02 rubej qurilmasi xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi detektorlari o'rnatilgan signalizatsiya tizimini kuzatish uchun mo'ljallangan. Qurilma o'rnatilgan uzluksiz quvvat manbaini o'z ichiga oladi. Yong'in signalizatsiya tizimi uchun elektr taminoti AS tarmog'idan ulanadi. Yong'in xaqida xabar berish OPOP-124-R3(SUZ) yorug'lik va ovoz signalizatsiyasi yordamida amalga oshirilgan. Xabar berish qurilmalari PS qurilmasidan KPSVVng(A)-LSLTx) sim orqali uzatilishi nazarda tutilgan.

4.5. Aloqa, signalizatsiya, videokuzatuv tizimi.

Yong'in signalizatsiyasi. Qisqacha malumot: Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01- 04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarini o'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i KPSng(A) 2x2x0,75 ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomno-kontrol'nyy i upravleniya oxranna pojarnyy "Rubej" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalga oshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

4.6. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi.

PVX derazalar, standart Alyumin 1 kamerali profil, ikki tomonlama energiya tejaydigan oynali. Barcha oynalar va transromlar (darcha) uchun oynalarini qo'llash kerak. Tashqi devorlari - Qalinligi $\gamma=500-600\text{kg/m}^3$ 200÷300mm.li gazoblok devorlar bilan to'ldirilgan.

Hajmiy og'irligi $\text{PPJ-}\gamma=120\div140\text{kg/m}^3$ GOST 9573-2012. $\delta=50\div80\text{mm}$.dan kam bo'lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

Tom qoplamasi himoya materiali - (Blok-1-2-3-4-5). Yog'och konstruksiya ustidan Polimer qoplamasi qoplanadi. CN-3000x1064x17 TSh 18726105-02:2011.

Tom issiqlik qoplamasi - Mineral tolali $\gamma=100\text{kg/m}^3$ qalinligi $\delta=100\text{mm}$. Penopleks bilan $\gamma=100\text{kg/m}^3$. $\delta=50\text{mm}$. 2 qatlam umumiy $\delta=100\text{mm}$. qoplanadi.

Eshik romlarini-issiqlik saqllovchi va zamonaviy eshik romlarini o'rnatish, binoning kirish eshiklarga o'zi yopiluvchi mexanizmlar o'rnatilgan.

Tashqi eshiklardan kirish joylariga tamburlar yechimi qilingan.

Elektr ta'minotida - Binoda energiya sarfini qisqartirish bo'yicha, muqobil energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish uchun binoning tom qismiga Quyosh fotoelektrik modul mono kristalli quyosh panellari Blok-1-2-3-4-5. da jamlanmasi o'rnatilgan.

Quyosh panelli suv isitgich Blok-1-2-3-4-5. da jamlanmasi o'rnatilgan.

Binoni ichki xonalari va yo'laklarini yoritish tizimida energiya tejamkor LED (turidagi) belgili yoritgich panellar qo'llanishi belgilangan.

Tashqi elektr yoritgich ustunlariga energiya tejamkor LED yoritgichlar o'rnatilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" Sirdaryo viloyati filialining 2025-yil 26-avgustdagi 01-02/09-2076-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.2. "Sirdaryo suv ta'minoti" AJ bo'limining 2025-yil 20-avgustdagi 01/03-1-488-sonli texnik sharti.

5.3. Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining 2025-yil 11-noyabrdagi 227085512-sonli Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosasi.

5.4. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Sirdaryo hududiy filiali"ning 2025-yil 14-avgustdagi 2422089582-sonli texnik sharti.

5.5. Loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish lozim.

5.6. "Hududiy gaz tarmoqlari" AJ "Sirdaryo hududiy filiali"ning 2025-yil 6-noyabrdagi 227342449-sonli texnik sharti.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **59 194 549 766** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

7 002 965 406 so'mga oshirilib, **66 197 515 172** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **53 852 353 929** so'm

Asbob-uskunalar: **5 252 570 331** so'm

QQS: **7 092 590 911** so'm

Ishchilar soati va ish haqi: 276 920 чел:час, 7 131 521,742 ming so'm.

6.1. Loyiha hujjatlari ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyiha hujjatlariga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

6.4. Buyurtmachi import qilinadigan asbob-uskunalarini sotib olishda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g' risida"gi Qonuniga amal qilishi kerak.

6.5. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugaganidan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.6. Loyiha tashkiloti Buyurtmachiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e'tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko'rsatmalar asosida (loyiha tashkiloti tomonidan) loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o'zgartirishlarni kiritgan holda taqdim etishi kerak. Loyiha tashkiloti berilgan javoblar uchun mas'ul va javobgardirlar.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining III-bob 29-bandiga, ShNQ 1.03.06-13, II bob, 8-bandi muvofiq «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchiligi yuzasidan buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanadi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, obektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosiligi yuzasidan ekspertizadan o'tkaziladi.

6.9. Loyihadagi ish hajmlarini smeta ish hajmlariga moslashtirish loyihachi hamda buyurtmachi javobgarlik sharti bilan.

6.10. Sharx va mulohazalar.

Mazkur obyektning loyiha smeta hujjatlarida agarda loyiha yechimlari o'zgarsa qayta xulosa olinishi shart. Ekspertiza tomonidan berilgan taklif va tavsiyalar bo'yicha tuzatilgan loyiha hujjatlarini nuqsonlar va xatolarni tuzatmasdan Buyurtmachiga taqdim etilsa ekspertiza yig'ma xulosasi o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.

Qarorga asosan ajratilgan mablag'lar doirasida loyiha-smeta hujjatlarini qayta ko'rib chiqish buyurtmachi va loyiha tashkiloti zimmasiga yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Zarbdor" MFY hududida "SAYHUN INVEST" MCHJ tomonidan "Ko'p qavatli turar-joy binolari" qurish obyektining loyiha-smeta va loyiha oldi hujjatlari" ishlari yuzasidan loyiha hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Bazarov G'ayrat Rustam O'g'li.

Ishtirokchi ekspertlar: Shukurov Rustam Sunnatovich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Djabbarova Lenura Appazovna, Nazarov Bobur Baxodir O'g'li, Djurayev Sherari Axmatjanovich, Niyazov Alisher Maxmudovich, Eshonxonov Bobur G'ofur O'g'li, Muxamadiyev Suxrobjon Baxtiyorovich, Abdurasulov Abdukarim Abdikamol O'g'li, O'ktamov O'tkirbek Jaxongir O'g'li